

## INSON KAPITALI VA INNOVATSION RIVOJLANISH O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR TAHLILI

*Abdullayeva Fazilat*

*Tayyorladi: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Moliyaviy tahlil" kafedrasida o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Jahonda inson kapitalining mazmun-mohiyatiga ko'ra raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahon milliy bankining ma'lumotlariga ko'ra 141 ta davlat global milliy bo'lylik tarkibidagi inson kapitalining ulushi so'nggi 20 yil davomida 55% ga o'sgan. Inson kapitalining iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHXT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlari milliy bo'lyligidagi ulushi 70%, quyi daromadli mamlakatlari bo'yicha 41%ni tashkil etgan. Inson kapitalining holati to'g'ridan-to'g'ri aholi turnush farovonligi va umuman iqtisodiy o'sishga ta'sir etishiga ko'ra an'anaviy omillarga nisbatan fan-ta'lim, intellektual taraqqiyotning o'rnini va ahamiyati yanada ortib borishi kuzatilmoqda. Ushbu maqolada ham yuqorida keltirilgan muammolarga yechim sifatida bir qancha takliflar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, iqtisodiy o'sish, daromad, intellektual taraqqiyot, kapital, milliy bo'lylik.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida inson kapitalini takror xosil qilish va undan samarali foydalanish borasida ta'lim-fan sohalarini sifat jihatdan rivojlantirish, uzluksiz ta'lim sharoitida ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, inson kapitalini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi masalalarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

"...O'zbekiston 2030 yilga kelib o'rtacha daromadda yuqori mamlakatlar qatoriga kirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, u holda aholi jon boshiga real YaIM ning o'sishi yiliga o'rtacha 10%ni tashkil qilishi lozim. Bu o'z navbatida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash, xususiyl sektorini jadal rivojlantirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, xukumatdan inson kapitaliga, kuchli ijtimoiyl himoya tizimiga va yashil o'sish modeliga izchil ravishda sarmoya kiritish talab qilinadi"<sup>1</sup>.

Innovatsion rivojlanish va inson kapitali darajasini baholash Respublikada inson kapitalining rivojlanish darajasini aniqlash, innovatsion rivojlanish darajasini baholash kabi bir qator ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uslubiyotga asoslangan "inson kapitali -innovatsion taraqqiyot darajasi" matritsasini yaratish orqali amalga oshiriladi.

"Inson kapitali" integral ko'rsatkichini hisoblash o'lchamlari orasida quyidagi ko'rsatkichlar tanlab olinadi:

- umumiy bandlar sonida o'rta maxsus va oliyl ma'lumotli xodimlarning ulushi;
- har yuz ming aholiga to'g'ri keluvchi ITTQI bilan shug'ullanuvchi xodimlar soni;

<sup>1</sup> <https://www.Uzbekistansystematic-country-diagnostic>

- umumiy aholi sonida Shahar aholisining ulushi;
- umr ko'rish davomiyligi;
- fondlar ko'effitsienti;
- daromadlari yashash minimumidan past bo'lgan aholining ulushi.

Integral ko'rsatkich qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarni saralab olish ilmiy-tadqiqot ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, inson kapitalining asosiy tashkil etuvchilari hisoblanuvchi sog'liqni saqlash kapitali va kasbiy kapital (bilim, ko'nikma, ish tajribasi va boshqalar) bilan bir qatorda, inson kapitalini shakllantirishga zarur bo'lgan investitsiyalar ham e'tiborga olinganligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Integral ko'rsatkichning har bir tarkibiy qismi uchun eng yuqori qiymat tanlangani holda, mamlakat hududlari ko'rsatkichlari bilan taqqoslash amalga oshirildi. Hisoblashlar natijasida hududlarda inson kapitali rivojlanishining yuqori, o'rtachadan yuqori, o'rtacha, o'rtachadan past, past darajalari aniqlashtirildi.

Inson kapitali darajasi bo'yicha hududlarnig guruhlariga ajratilishi dastlab notekis natija berganligi va normal taqsimot qonuniga to'g'ri kelmasligi bois hududlarning ikkilamchi guruhlanishi amalga oshirildi. Endigi keladigan, o'zimiz tahlil qilgan jadval ma'lumotlarida qaraydigan bo'lsak, tahlil natijalarida Toshkent shahri, Navoiy Toshkent, Buxoro, Farg'ona viloyatlarida inson kapitali rivojlanish darajasi o'rtachadan yuqori va yuqori ekanligini ko'rsatdi.

**1-jadval:**

**2023-yilda inson kapitalining rivojlanish darajasi**

Rivojlanish darajasi	Hudud
Yuqori	Toshkent shahri (0.7673), Navoiy viloyati (0.7265)
O'rtachadan yuqri	Toshkent viloyati (0.7144), Buxoro viloyati (0.6941), Farg'ona(0.6846).
O'rta	Samarqand (0.6698), Jizzax (0.6779), Sirdaryo (0.6740)
O'rtachadan past	Andijon (0.6510), Qashqadaryo (0.6348), Qoraqalpog'iston (0.6476), Xorazm (0.6331).
Past	Surxandaryo (0.6186), Namangan (0.6171).

**Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.**

Hududlarning inson kapitali rivojlanish darajasi past bo'lgan guruhga kiritilishi umumiy bandlar sonida oliy ma'lumotli mutaxassislarning ulushi, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi hosimlar sonidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Fikrimizcha inson kapitalini shakllantirish, undan samarali foydalanish va hududlarning innovatsion taraqqiyotii ta'minlash borasidagi tashkiliy tadbirlar qatoriga ta'lim-fan va ishlab chiqarishning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, hududlarning innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiluvchi hududiy strategik dastur va konseptsiyalar ishlab chiqish kabilar kiradi.

Milliy iqtisodiyot hamda hududlarda innovatsion faollikni oshirish borasida amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi maqolamizni yakunlovchi fikrlarimizni keltirib o'tamiz:

-inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanishda hududlarning innovatsion taraqqiyot darajasi muhim o'rin tutadi. Bunda hududning innovatsion faollik darajasi qancha yaxshilanib borsa, shuncha inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish borasidagi ishlar yaxshi tashkil qilinganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi

-hududlarda iqtisodiyotning innovatsion tashkil etuvchilarini rivojlantirish borasida mavjud imkoniyatlardan foydalanmaslik, istiqbolda kadrlar salohiyatining pasayishiga, hudud iqtisodiy ko'rsatkichlarining mamlakat ko'rsatkichlariga nisbatan Keskin tushib ketishiga olib keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2.Davlat statistika Qo'mitasi 2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari.

3. A.Vahobov Inson kapitalining investitsion samaradorligini baholashning uslubiy asoslari// Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni baholash va prognozlashtirish. Ilmiy maqolalar to'plami.